

YOSH OILANING IJTIMOY MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH USULLARI

Abdusalomov Muhridin Shokirjon o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Gmail: abdusalomovmuhridin549@gmail.com

Kalit so'zlar: patriarxal, yosh oila, avtoritar hokimyat, etalitar munosabatlar, gomogen, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy- pedagogik yordam

Annotatsiya

Hozirgi kunnin eng dolzarb mavzularidan biri hisoblangan oilalarning ijtimoiy muammolari, bu kategoriyada ayniqsa yosh oilalarning ijtimoiy iqtisodiy muammolari va muammolarga yechim tavsiyalar berilgan ushbu maqolada. Oila, unga qaysi nuqtai nazardan yondashilmasin, nihoyatda qatlamli ijtimoiy xosiladir. Unda ijtimoiy tashkilot, tuzilma, institut va kichik guruxga xos xossalar uyg'un bo'lib, ular oila xuquqining bahs mavzusini tashkil etadi. Bu ijtimoiy nazorat va ijtimoiy mobillik Oila instituti noyob va serqirra ijtimoiy tuzilma sifatida fanning turli sohalarida o'rganiladi. Oila masalalari falsafa, huquq, ijtimoiy ish, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, tibbiyot va boshqa fanlarning diqqat markazidadir. Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tadqiq etish ko'rib chiqilgan.

Абстрактный

В статье рассматриваются социальные проблемы семей, особенно социально-экономические проблемы молодых семей, как одна из самых актуальных тем нашего времени, и даются рекомендации по их решению. Семья, с какой бы точки зрения к ней ни подходили, представляет собой чрезвычайно многоуровневую социальную структуру. Она сочетает в себе черты социальной организации, структуры, института и малой группы, которые являются предметом обсуждения в семейном праве. Социальный контроль и социальная мобильность института семьи как уникальной и многогранной социальной структуры изучаются в различных областях науки. Семейные вопросы находятся в центре внимания философии, права, социальной работы, социологии, педагогики, психологии, медицины и других дисциплин. В данной статье рассматривается изучение семейных отношений с социально-психологической точки зрения.

Abstract

One of the most pressing topics of today is the social problems of families, especially the socio-economic problems of young families and recommendations for solving them are given in this article. The family, no matter from which perspective it is approached, is an extremely multi-layered social entity. It combines the

characteristics of a social organization, structure, institution and small group, which constitute the subject of discussion of family law. This social control and social mobility of the family institution as a unique and multifaceted social structure is studied in various fields of science. Family issues are in the focus of philosophy, law, social work, sociology, pedagogy, psychology, medicine and other disciplines. This article considers the study of family relations from a socio-psychological perspective.

Iqtisodiy, ijtimoiy, milliy va hududiy farqlarning xilma-xilligi oilaviy munosabatlar bir kancha tiplarining vujudga kelishini taqozo etadi. Ular orasida uchasi asosiydir: patriarxal, etalitar (demokratik) va o'tish (o'tkinchi). Klassik shakldagi patriarxata oila allaqachon yukolgan, ammo oilaviy munosabatlarda patriarxal yondashuv saqlanib qolgan. Tuzilishiga ko'ra patriarxal oilalar murakkab bo'lib, ularga bir qancha nikohdagi juftliklar kiradi, u ko'p bolaliligi va oilaviy aloqalarning mustahkamligi bilan ajralib turadi. Patriarxal oilaning eng asosiy belgisi katta yoshdagi erkakning mutlaq hukmronligi, erkaklarning boshchiligi. Patriarxal oilalarda odatda ayollar ijtimoiy ishlab chikarish tizimida faoliyat ko'rsatmaydilar, ular uy yumushlari va farzand tarbiyasi bilan mashg'ul bo'ladilar. Patriarxal oilada ko'pincha diniy ruh ustun bo'ladi. Bunday oilalar barqaror bo'ladi. Mavjud murakkab munosabatlar tizimida ajralishlarga deyarli imkon bo'lmaydi. Oilalar tarixidan ma'lumki, patriarxal oila shaxsning mustaqilligini, tanlov erkinligini istisno etadi (bunga yul kuymaydi). U otaning qattiq avtoritar xokimiyati negiziga kurilgan bo'lib, bu esa muqarrar ravishda turli kelishmovchiliklar keltirib chiqaradi.

Patriarxal oilaning qarama-qarshisi etalitar oila nomini olgan va hamkorlikka asoslangan oiladir. Bu teng huquqdi shaxslar oilasidir. Etalitar oilaga yuksak darajadagi ma'naviy-ruhiy muhit, madaniyat xosdir. Bunday oilada er-xotin hamfikrdirlar. Oiladagi yumushlar birgalikda bajariladi, oila mablagiga nisbatan demokratik munosabat o'rnatiladi, nizolar demokratik asosda hal etiladi, ikkala tomon (er-xotin) bunday nikoxdan qoniqish hosil qiladi. Sotsiologlar etalitar oila barkarorligini ta'kidlaydilar¹.

Ijtimoiy-psixologik omillar oilaga katta ta'sir ko'rsatadi. Nikohning barqarorligi ko'p jihatdan amalda qaror topayotgan oilaviy munosabatlarga bog'liq. O'zaro muhabbat nikoh tuzishining hal qiluvchi motivi sifatida oilaviy ta'minlashga kafolat bo'la olmaydi. Agar er-xotinning xo'jalik, maishiy va boshqa munosabatlarida tarqoqlik paydo bo'lsa, bunday xolatda ulardagi bir-biriga nisbatan xis-tuyg'ular so'vib, tezda barham topadi.

Oila - bolaning ilq ijtimoiy dunyosi. Oilada dunyokarash, axloq, fel-atvor asoslari shakllanadi. Demokratizm, sabr-toqat, mehribonlik, murosaga tayyorlik ilk

¹ Кўчқоров В. Баркамол инсонни вояга етказишда оила, маҳалла ва таълим муассасасининг узвий ҳамкорлиги Тошкент: Шарқ, 2011. 86 б

yoshidayoq bola harakteriga singa boradi. Ota-onaning shaxsiy xislatlari birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ular o'zlariga qanchalik talabchan bo'lsalar, o'zaro munosabatlardagi madaniyati qanchalik yuksak bo'lsa, bolaning me'yorida tarbiyalanishi uchun shunchalik qulay bo'ladi. Yosh oila uchun mezon, avvalo, birinchi nikohning mavjudligi, birgalikdagi xayotining davom etayotgani, yani uch yilgacha davom etganligi hamda er-xotin yoshining chegarasi, ya'ni 18 yoshdan 30 yoshgacha ekanligidir. Tuzilishiga ko'ra, hozirgi zamondagi yosh oila to'lik, tipik va ijtimoiy tavakkalga asoslangan bo'ladi. Oxirgi tipga to'liqsiz oilalar taalluqli bo'lib, ularga yolgiz va voyaga etmagan onalarning, talabalarining oilalari, shuningdek a'zolaridan biri nogiron bo'lgai oilalar kiradi. Ijtimoiy muammolar oilaning har bir tipida har tomoilama namoyon bo'ladi va yosh oilalarga professional yordam ko'rsatish extiyoji ham ko'p jixagdan uning tipiga bog'liq.

Oilaviy munosabatlarni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tadqiq etish shuni ko'rsatmoqdaki, tarbiya uchun qulay sharoit er-xotinning etalitar munosabatlarida yaratiladi. Oilaning turmush tarzi tarbiya natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Er-xotinning o'zaro munosabatlari qanchalik yomon bo'lsa, ularning farzandlar bilan munosabatlari ham shunchalik keskin bo'ladi. Ota-onalar o'rtasida hamjixatlikning yukligi, bolalarga e'tiborsizlik, oilaning katta yoshli a'zolari munosabatlaridagi soxtalik va ikkiyuzlamachiliklar bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi zamon oilasida onaning tarbiyaviy roli keskin oshdi. Ko'p hollarda ona bolalar tarbiyasi va narvarishiga erkakka qaraganda ancha ko'p vaqt sarflaydi. Ishlayotgan oilali erkaklar bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanishga xotinlariga nisbatan ikki baravar kam vaqt sarflashlari ma'lum. Odatda bolalar otalariga qaraganda onalari bilan yaqinrok munosabatda bo'ladilar. Bolalari uchun muhim va qiziqarli mavzularda otalar emas, balki aynan onalar ishonchli suhbat qura oladilar. O'smirlarning ota-onalari bilan muhokama qiladigan eng muhim mavzulari maktab xayotidagi voqealar va o'rtoqlari bilan munosabatlaridir. Afsuski, bunda o'kilgan kitoblar, ko'ripkan spektakllar, filmlar muhokamasi har doim ham oldingi o'rinlarni egallamaydi. Hamma ota-onalar ham bolalariga o'z ishlari, muammo va tashvishlari hakida so'zlab bermaydilar.

Agar qarindoshlarning ikki yoki undan ortiq oilasi birgalikda yashasa-yu, ammo xo'jalikni alohida yuritsalar, ular alohida-alohida oilaviy guruhlarni tashkil qiladilar. Ota-onalar garchi alohida yashasalar-da, yosh oilaga moddiy yordam ko'rsatib, uy yumushlari va bolalar tarbiyasida birga ishtirok etgan hollarda ham, ular oilaviy guruh deb ataladi. Agar ota-onaning oilasi va yosh oila birga yashasalar, yosh ona va 40-50 yoshlardagi ishlovchi buvi bolaga qarash uchun ko'shimcha mehnat yukini zimmasiga

oladi. Qiyoslaganda, onaning o‘z bolasiga ajratadigan vaqti 6-7 soat bo‘lsa, buviniki 5- 6 soatni tashkil etadi².

Birga yashovchi oilaviy guruhlardagi ota-onaning yosh oilaga yordamlari odatda katta bo‘ladi. Buvi va buvalar yordamining qay darajadaliği pensionerlarning ishlash-ishlamasligiga bog‘lik. Katta yoshdagilarning farzandlariga moddiy jixatdan karam emasligi hozirgi oilalarga xos jihatdir. Qariyalarda mustaqillikka intilish yoshlardagi kabi kuchli bo‘ladi. Qariyalarning bir qismi farzandlariga tobe bo‘lmaslikni, ortiqcha yuk bo‘lmaslikni, ayni vaqtda ular uchun «enaga» bo‘lmaslikni, oilaviy tashvishlar bilan o‘ralashib qolmaslikni istaydilar. Ayrim pensionerlarda esa mehnat faoliyatini davom ettirish ishtiyoki farzandlarining oilalariga yordam berish istagidan ham kuchli bo‘ladi.

Nikohda insonning muxabbat, o‘z kadr-kimmatini saklab kolish kabi asosiy ijtimoiy extiyojlari kondirilishi lozim. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, erkaklarga nisbatan ayollar turmush o‘rtog‘iga nisbatan ko‘proq tanqidiy munosabatda bo‘ladilar. Eriga past baho berish ayolning o‘ziga ortiqcha baho berishidan kelib chiqadi. Oilaviy munosabatlarda bir-biriga doimiy salbiy baho berish er-xotinlarning xarakterida ham o‘zgarishlar yasaydi va oqibatda munosabatlarda keskinlik yuzaga keladi.

Xiyonat ajratishlarning sub’ektiv sabablari orasida birinchi o‘rinni egallaydi. Erkak va ayollar oilani buzuvchi sabablar ichida xiyonatni birinchi o‘ringa qo‘yadilar.

Bunda ayrim er-xotinlar (ko‘pincha erkaklar) tasodifiy jismoniy xiyonat nikohni buzmasligi kerak deb hisoblaydilar. Oilaviy munosabatlarga oid bunday murakkab muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarning xilma-xilligi er-xotinning sadoqatiga eng muhim qadriyat deb karalgan yuksak axlokiy me’yorning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Nikoh buzilishinnng jiddiy sabablaridan yana biri xis-tuygularning tugashidir. Bu nikohning asosiy motivi bo‘lgan sevgi bilan bogliqdir. Shuni aniq aytish mumkinki, ko‘pchilik respondentlar sevgi tuyg‘usining yo‘ligini nikoh buzilishining jiddiy sababi deb biladilar. Yosh oilalar o‘zlarining oilaviy kelajagini bir-birlarini sevuvchi, sadoqatli yor, farzandlarining g‘amxo‘r tarbiyachilari ittifoqi sifatida tasavvur qiladilar.

Yoshlar nikohning gomogen xususiyatini, yani ta’lim darajasi va akliy darajaning muvofikligini ham nikoh barqarorligining muhim sharti deb hisoblaydilar. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, eng muhim xulosani chikaramiz. Oilaviy tenglik bilan tasdiklanmagan emansipasiya inson shaxsining emas, balki fakat ayolning emansipasiyasidir. Emansipasiyaning bu boskichi allasachon tarixga aylaidi. Emansipa-hozirgi konsepsiyasi er-xotinning oiladagi umumiy (birgapikdagi) roolidan kelib chikib yaratilishi, yani etalitar oilaviy munosabatlar konseisiyasi bo‘lishi kerak.

² Хаёт китоби: Ёш оилалар учун энциклопедик қўлланма. Тошкент: Шарқ, 2011. 2726

«Ayollar muammolari»ni o‘rganishdan voz kechish vaqti etdi, ya’ni hozirgi kunda sotsiologiya oilada erkakning rolini o‘rganish bilan shug‘ullanishi lozim. Ayollar va erkaklar muammolari ko‘rinib turgan, hamisha mavjud bo‘lgan muammolardir. Bu hol uni hal qilish mumkin emasligini bildirmaydi. Nafaqat ayol va erkak mehnatining o‘ziga xosligi, balki erkak va ayol xayoti hamda faoliyatning xususiyatlari xakida ham o‘ylab ko‘rish kerak. Shaxs uygunligi uning (ishlovchi er yoki xotii, ota yoki ona) asosiy funksiyalarining uygunligisiz mavjud bulmaydi.

XXI asrdagi sivilizatsiya jarayonida hammamiz avvalo ijtimoiy sharoitlar xilma-xilligini va bu borada tanlash erkinligi borligini anglamoqdamiz. Jamiyat odamlar turmush sharoitlarining nihoyatda xilma-xilligini inobatga olishi hamda ularga mustaqil individual tanlash imkoniyatlarini berishi zarur³.

Yosh oila jamiyatning alohida fundamental guruhiga kiradi. U bir vaqtning o‘zida ijtimoiy gurux va jamiyat instituti xisoblanadi. Yosh oila jamiyatning, uning barcha ijtimoiy aloqa va munosabatlarining o‘ziga xos modelidir. Yosh oila jamiyat bilan o‘zaro murakkab munosabatlarda bo‘lib, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarni ta’siriga uchraydi hamda o‘zi ham jamiyatga ta’sir ko‘rsatadi.

Oilaning ijtimoiy xizmatlari. Oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy manba 1998 yil 30 aprelda tasdiqlangan va shu yil 1 sentyabrdan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksidir. Oila kodeksi oila huquqlarining yaxlit tizimini belgilovchi asosiy manba xisoblanadi.

Oilaga oid siësatni amalga oshirishning asosiy yunalishlari: oilaga ijtimoiy va psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish tizimini yaratish, ona va bola sog‘lig‘ini saklash, oilaning xayoti va faoliyati uchun moddiy sharoitlarni yaxshilash, kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, aëllarning kasbiy va ijgimoiy makomini ko‘tarish, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish, tashviqot va madaniy ishlarni amalga oshirish, ijtimoiy xizmatlar uchun kadrlar tayorlash kabilardan iborat. Tashkiliy chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- qonuniy maxsus hujjatlar va boshqa huquqiy aktlarning, mahalliy xokimiyat va boshqaruv organlari qarorlarining qabul qilinishi;
- oilaga oid siyosatning ayrim yo‘nalishlari borasida kompleks va maqsadli mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;
- oilaga va bolalarga ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy- pedagogik yordam ko‘rsatish bo‘yicha hududiy organlar, shuningdek turli soha va yo‘nalishlarda maxsus xizmatlar tizimini shakllantirish va x.k.

Bunda shu soha xodimining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- 1) diagnostika (oilaning xususiyatlarini o‘rganish, salohiyatini aniqlash);
- 2) qo‘riqlash-himoyalash (oilani huquqiy qo‘llab-quvvatlash);

³ Камалов О. А., Ярмухамедова А. Р., Курбанова А. А., Артиков Б. А. Ҳозирги жамиятда ёш оила. Қўлланма. Т 2013 30 6

- 3) ijtimoiy-psixologik-pedagogik funktsiya;
- 4) irognostik funktsiya (vaziyatlarni modellashtirish va manzilli yordam ko'rsatish dasturlarini ishlab chiqish);
- 5) muvofiqlashtirish.

Er-xotinnng shaxsiy munosabatlariga ularning eski do'stlarining aralashishi bu davrdagi salbiy hodisadir. Masalan, oilaviy hayot muammolarini xotinning yaqin dugonasi yoki erning qadrdon do'sti bilan doimiy ravishda muxokama qilishi ana shunday salbiy holatlarni keltirib chiqaradi.

Ota-onalarning yosh oilaga beandishalik bilan aralashishi bu davrdagi yana bir jiddiy muammo bo'lib, ko'pincha yoshlar hatto alohida yashagan taqdirda ham bu ta'sir seziladi. Masalan, xotinning onasi yosh kuyovga o'ziga kerakli vazifalarni bajaritirishga urinadi. Yoki aksincha, erning onasi kelinni yaxshi uy bekasi bo'la olmayotgani, shu bois yetarli e'tibor qaratmayotgani uchun siquvga oladi. Qaynonannng kelinning narsalarini o'zboshimchalik bilan tartibga keltirishi, yuvgan kirlarini qayta yuvishi va dazmollashi singari bevosita aralashuvlari ham tez-tez uchrab turadi.

Odatda, bunday hatti har oilaviy totuvlikka putur yetkazadi, urush-janjallarga sabab bo'ladi. Katta avlod yosh oilaning «chegara»sini buzmaslikka harkat qilishi lozim. Ayni vaktida kelin-kuyovga ota-onalarining oilalaridan batamom uzoqlashmaslik, ziyrak bo'lish, ularga ko'proq xurmat ko'rsatish tavsiya etiladi.

Kelin-kuyovlar uchun har qanday nizoli masalani o'zaro birgalikda muxokama qilib, bir karorga kelishni o'rganish muhim. Muammolar yaqinlik darajasi va yolgiz qolish imkoniyati, maishiy majburiyatlar va xayotiy muhim narsalar borasidagi mas'uliyat, intim munosabatlar va farzand ko'rish istagi, oilaning moliyaviy ta'minoti va er-xotinnng shaxsiy mablag'lari kabi xayotiy masalalar borasida chikishi mumkin⁴. Kichik (maktabgacha) yoshdagi bolali yosh oila. Bu davrning vazifasi - er-xotinning o'zaro bog'liqlikdan uchinchi bog'likqikka o'tishi xisoblanadi, bunga tobe a'zo - bola sabab bo'ladi. Ba'zan shunday bo'ladiki, oilaga birinchi tobe a'zo - farzand emas, balki boshqa bir kimsa (ota yoki ona, aka eoki uka yoxud ona yoki singil yoxud katta yoshdagi boshqa odam) bo'lishi mumkin. To'liqsiz oilada bu bosqich ikki tomonlama tobelikning shakllanishini taqozo etadi.

Har qanday xolatda ham oilalar azaliy vazifalarni bajarish uchun tashkil tonaveradi, shaxsiy va oilaviy maqsadlar borasidagi kelishuv davom etaveradi. Agar mezon to'ng'ich farzandning tug'ilishi bo'lsa, asosiy maqsad - uning xavfsiz sharoigda o'sishi va rivojlanishini hamda ota-onasi obro'sining shakllanishini ta'minlashdir. Onalik majburiyatlari er-xotinlik munosabatlariga putur yetkazmasligi lozim.

⁴ Хаёт китоби: Ёш oilalar uchun энциклопедик қўлланма. Тошкент: Шарқ, 2011. 2726

Farzand tug‘ilganidan so‘ng, er-xotinlik vazifalariga ota-onalik vazifalari ham qo‘shiladi. Natijada ushbu vazifalar o‘rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal qilish zarurati paydo bo‘ladi. Farzand dunyoga kelishi ba‘zan ota-ona o‘rtasidagi yaqinlnkni oshirib yoki kamaytirib, munosabatga ta‘sir ko‘rsatadi. Tunda bolaga qarash, sayrga olib chikish borasidagi baxs-munozaralardan ba‘zida janjallar kelib chiqadi. Agar ona farzandi bilan ovvora bo‘lib qolsa, ota o‘zini yolg‘iz his qilishi, natijada boshi bilan ishga shung‘ib ketib, oilasidan ancha uzoqlashishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Кўчқоров В. Баркамол инсонни вояга етказишда оила, маҳалла ва таълим муассасасининг узвий ҳамкорлиги Тошкент: Шарқ, 2011. 86 б
- 2.Ҳаёт китоби: Ёш оилалар учун энциклопедик қўлланма. Тошкент: Шарқ, 2011. 272б
- 3.Камалов О. А., Ярмухамедова А. Р., Курбанова А. А., Артиков Б. А. Ҳозирги жамиятда ёш оила. Қўлланма. Т 2013 30 б
- 4.Ҳаёт китоби: Ёш оилалар учун энциклопедик қўлланма. Тошкент: Шарқ, 2011. 272б
- 5.Sharopova M., Sharopov J. Oilada ёsh avlod tarbiyasi – jamiyat qudrati mezoni. Toshkent: O‘zbekiston, 2009 y 76 b